

JADIDCHILIK NOMOYONDASI ISHAQON IBRATNING PEDAGOGIK
QARASHLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kadirova X.A.

CHDPU Umumiy pedagogika kafedrası v.b.dotsenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida Ishaqon Ibratning ahloqiy qarashlaridan samarali foydalanish pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi, yangi usul maktablarining ochilishi, hamda bu maktablarda o'qitilishga mo'ljallangan darsliklarining yaratilishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *didaktika, ta'lim, tarbiya, jadid, usuli jadid, maktab, o'quvchi.*

Ishoqxon to'ra Ibrat – milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridan biri, serqirra iste'dod sohibi. Shoir va maorifchi Ibrohim Davron (1874-1922) Ibrat haqida quyidagilarni yozadi: «Ishoqxon To'ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustoz komillig'i bilan butun Farg'ona va digar jihat Osiyoyi Vustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqe'i mutozi tutmushdur. Ishoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda, biloshubha, arxitektor, texnik va mexanik va fiziqliya ilminda tilfonist, tilig'rofigist va yana ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni bilur. Ishoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur».

Ishoqxon 1862 yili Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida tug'ildi. Uning otanalari Junaydullaxo'ja va Huribibi davrining o'qimishli kishilari edilar. Ishoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan mahalla maktabida o'qidi, ammo savodini onasining qo'lida chiqardi. Huribibi maktabdor bo'lib, o'z maktabida faqat quruq yodlash bilangina cheklanmay, qizlarga yozish va husnixatni ham o'rgatar edi. Shuning uchun ham Ishoqxon onasini ko'p asarlarida ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Adabiyot va san'atta zo'r muhabbat qo'ygan Ishoqxonni o'qishni davom ettirishi uchun Qo'qonga yuboradilar. U 1878 yili XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga o'qishga kiradi. Ishoqxonning Qo'qon madrasalarida tahsil qo'rgan yillari (1878-1886) o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrga to'g'ri keldi. Uning bu adabiy-madaniy hayotdan bahramand bo'lganligi shubhasiz. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan.

Ishoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadi. U o'qish davomida buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi, rus va o'zbek tillarida chiqadigan «Turkiston viloyatining gazetii», «Turkestanskiye vedomosti» kabi hamda Turkiston o'lkasiga yangi

tarqalayotgan Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi bilan birinchi marta Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan kezlari tanishdi.

1886 yili madrasani tugatib, To‘rao‘rg‘onga qaytgan Ibrat o‘z faoliyatini qishloqda ma‘rifat tarqatishdan boshlaydi, o‘sha yili qishloqda maktab ochadi. Uning maktabi «usuli qadim» — «usuli tahajji», ya‘ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Ishoqxon to‘ra Qo‘qonda o‘qib yurgan vaqtlarida o‘lkada ochilayotgan rus maktablaridagi o‘quv usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usullaridan ustunligini sezgan edi. Shuning uchun u o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or hisoblangan tovush (savtiya) usulini tatbiq qildi. Ammo bu maktab uzoq faoliyat ko‘rsata olmadi. Mutaassiblar uni yopishga muvaffaq bo‘ldilar. Ishoqxon Ibrat o‘zining «Lug‘ati sitta alsina», «Jome‘ul-xutut» va «Tarixi Farg‘ona» asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya‘ni 25 yoshida onasini Makkaga olib borish uchun otlanadi. Biroq Vatanga qaytish onaizoriga nasib etmadi. Huribibi o‘pka shamollash kasali bilan Jidda shahrida vafot etdi. Ishoqxonning Sharq mamlakatlari safariga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo‘lsa, ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish istagi edi: «...Umrim naqdini havas bozorida kechirmak taqozosila o‘lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havo taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum...»— deb yozadi u.

Ishoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo‘ylab safarini davom ettirdi. Shu bilan birga Istanbul, Sofiya, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afgonistonning Kobul, Arabistonning Jidda kabi shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892—1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashadi. Bu yerda ko‘p ishlatiladigan arba‘ lison, ya‘ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. Ishoqxon Ibratning Sharq va G‘arb xalqlari tillarini ancha mukammal bilganligini e‘tirof etib, zamondoshi Ibrohim Davron shunday yozadi: «Fazoili insoniyadin moada qozi to‘ra janoblari turkcha, forsha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, franso‘zcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar».

Ishoqxon to‘ra Ibrat 1896 yili Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so‘ngra Koshg‘arga o‘tadi va Namanganga qaytib keladi. Chet eldan qaytgach, 1896 yili olti tilni o‘z ichiga olgan «Lug‘ati sitta alsina» («Olti tilli lug‘at») nomli asarini yozdi. Asar ancha qiyinchiliklar bilan 1901 yili Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etildi. Ibrat ilg‘or pedagog sifatidagi faoliyatini davom ettirib, 1907 yili o‘z uyida «usuli savtiya» metodiga asoslangan maktab ochdi. Unda 30 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. O‘qish-o‘qitish ishlarini o‘zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Maktab yorug‘ derazali katta xonaga joylashgan bo‘lib, yangi o‘quv qurollari — parta, stol-stullar, yangi o‘quv kitoblari, qora taxta (doska), daftar kabilar bilan ta‘minlangan edi. Ibrat o‘z maktabiga yangicha o‘qitish usullaridan xabardor bo‘lgan pedagog Husayn Makayevni taklif qildi.

Husayn Makayev va uning rafiqasi Fotima Makayeva Ishoqxon Ibrat maktabida o'qituvchi sifatida faoliyat ko'rsatdilar.

1907 yili Ibrat Orenburgga boradi va Rizo Faxriddinning «Sho'ro» jurnali faoliyati bilan tanishadi. U Orenburgda Gaufman degan matbaachidan pulini o'n yil mobaynida to'lash sharti bilan 1901 yilda chiqqan litografik mashina sotib oladi. Ishoqxon litografik mashina va harflarni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo'qonga poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda olib keladi. 1905 yili o'zi qurdirgan hammom o'rnida chopxona tashkil qildi va «Matbaai Ishoqiya» nomi bilan ishga tushirdi.

Ibrat «Maqsad bu ishdan erdi olamg'a ilm kasri» deb ta'kidlaganidek, bu matbaa o'z faoliyatini ilm-ma'rifat tarqatishdan boshladi. Uning birinchi mahsuloti «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» savod chiqarishga bag'ishlangan bo'lib, 1908 yili bosmadan chiqdi. Bu to'g'rida o'sha yili matbaaga mudirlik qilgan Oxunzoda Abdurauf Shahidiy quyidagilarni yozadi: «Qobiliyat va salohiyatlari qaviy, zakovat va fatonatlari joyida bo'lgan g'ayratli talabalar va yosh muallimlarimiz va ahli kitobot va xattotlarimizga ta'lim va ta'limi kitobat xususidagi birinchi hadyamizni ojizona taqdim ayladik».

Bu asar savod chiqarish va husnixat namunalarini o'rganishda muhim qo'llanma vazifasini o'tagan. Xalq o'rtasida kitob va o'quv qo'llanmalariga bo'lgan talabning oshib borishi natijasida litografiya 1910 yili Namangan shahriga ko'chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi.

Maorif va madaniyatning ravnaq topishi, xalq ongining shakllanishi va rivojlanishida gazetaning ulkan ahamiyatini tushungan Ishoqxon to'ra 1913 yili «Matbaai Ishoqiya» qoshida «Al-tijor al-Namangan» nomida gazeta chiqarishga harakat qiladi, hukumatga ariza ham beradi. Bu haqda Ufada chiqadigan, nainki O'rta Osiyo, umumturkiy dunyoda mashhur bo'lgan «Vaqt» gazetasi katta mamnuniyat bilan quyidagilarni yozadi: «Namangan mo'tabarindin Ishoq qozi hazratlari «Al-tijor al-Namangan» ismida bir gazeta chiqararg'a so'rab ariza berdi. Bu zot 1908 yilda Namanganda bir matbaa ochgan edi. Bu yil «Kutubxonai Ishoqiya» ismida kutubxona ochib, turk, tatar, o'zbek tillarida bo'lg'on adabiyot kitoblari oddirdi. Hozir gazeta chiqarmoq haddindadir. Chin ko'ngildan muvaffaqiyat tilaymiz».

Afsuski, Ishoqxon to'ra gazeta nashr qilishga muvaffaq bo'la olmadi, lekin o'z uyida ancha boy kutubxona tashkil qildi va uni «Kutubxonai Ishoqiya» deb atadi. Uning arxivida saqlangan kitoblar ro'yxati shuni tasdiqlaydiki, kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, turk, tatar, rus, fors-tojik tillarida bitilgan ko'plab kitoblar bo'lgan, qishloq aholisi ulardan unumli foydalangan. Ishoqxon Ibrat o'z maktabi o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlagan. Kutubxonaning maktab o'quvchilariga bag'ishlangan bo'limida Ismoilbek Gaspralining «Xo'jai sibyon», Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy»,

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Asbobi ta‘limi savod», «Kitobat-ul-atfol» kabi 50 nomdan ortiq darslik va qo‘llanmalar, ta‘lim-tarbiyaga oid risolalar bo‘lgan.

Ma‘lumki, Markaziy Osiyo Rusiya tomonidan bosib olingandan keyin ham qozilik sudi saqlanib qoldi. Bu bilan mustamlakachilar o‘zlarini yerli xalqqa nisbatan odil, ularning «pushti panohi» qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar. Ammo davlat ahamiyatiga molik ishlarni qozilik sudida ko‘rish man etildi. Ishoqxon Ibrat 1897-1924 yillarda uzluksiz To‘raqo‘rg‘on qozisi lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Qator publitsistik maqolalarida, she‘rlarida tuzum illatlarini, mahalliy va mustamlaka amaldorlarining qabih ishlarini fosh etdi. 1910 yili Turkiston o‘lkasida qozilik mansabiga saylov o‘tkazildi. Shu munosabat bilan u «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida mustamlaka tartiblarining mohiyatini ochib tashlovchi turkum maqolalari bilan chiqdi. O‘g‘rilik, poraxo‘rlilik, zo‘ravonlik bilan shug‘ullanuvchi yaramas odamlarning qozi yoki mingboshi bo‘lib olishlariga keng yo‘l ochib bergan chor hukumati qonun-qoidalari, «polojeniya»laridan qattiq noroziligini dadil ifodaladi. Xalq taqdirini qabih, yomon odamlarga topshirib qo‘yishlaridan afsuslandi. Uning quyidagi so‘zlari ushbu fikrni quvvatlaydi: «Polojeniyada 223-bobida zikr qilingandurki, e‘tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo‘lmagan, o‘ttiz so‘mdan ziyoda ishtaraf to‘lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo‘lar ekan. Olim yoki omi, ahmoq yoki dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan. Ko‘rasiz, kimlarni(ng) qo‘llariga bu katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr-andisha qiladurgan kishi yo‘q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydurlar. Polojeniya bobig‘a muvofiq ellikboshi degan kimgaki shar ko‘p tushsa, ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil qilsalar polojeniyaga muvofiq. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan. Ularga kim va nima bo‘lishi ham darkor emas ekan. Befikr o‘tsang, ey do‘st, muhtoji non o‘lursan».

Milliy uyg‘onish davri mutafakkirlari o‘zbek xalqini mutaraqiy millatlar bilan teng ko‘rishni istadilar. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo‘li sifatida maktab-madrasalarni tubdan isloh qilish masalasiga butun kuch-g‘ayratlarini, bilimlarini safarbar qildilar. Ular o‘z faoliyatlarini bir-biridan ajralgan hodda emas, o‘zaro hamkorlikda, hammaslaklikda, yaqin aloqa bog‘lagan holda yo‘lga qo‘ydilar. Munavvarqori Abdurashidxonov Behbudiyning «Oyna» jurnalida, Ishoqxon to‘ra Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan «Sadoyi Turkiston», Farg‘onadagi «Sadoyi Farg‘ona» gazetalarida o‘z asarlari bilan ishtirok etdi. U Munavvarqorining taklifiga binoan bir necha marta Toshkentda, uning maktabi imtihonlarida qatnashgan. Munavvarqori 1907 yili Ishoqxon to‘raga maxsus taklif xati bilan murojaat qiladi: «Hurmatlu Ishoqxonhoji janoblarina! 1907 yil may oyidan e‘tiboran Toshkandda Tarnovboshi mahallasida «Xoniya» maktabinda talabalarni yillik imtihonlari boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobe‘ingizda bo‘lg‘on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar sizdin mamnun bo‘lur edilar. Muhibingiz Munavvarqori. 15 mart 1907 yil». Bu taklifga

binoan Ishoqxon Ibrat o‘z yaqinlari — ilg‘or pedagoglar Husayn Makayev, Mulla Iskandar domla Abduvahob o‘g‘li bilan bir necha oy Toshkentda bo‘ladi. Ular Toshkentda usuli savtiya maktablari bilan bir qatorda usuli qadim maktablarida ham bo‘ladilar. Ishoqxon Ibratning «usuli jadid» va «usuli qadim» maktablariga bag‘ishlangan turkum maqolalari «Turkiston viloyatining gazetida» bosilib chiqdi.

Ishoqxon Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan xar bir ilg‘or yangilikdan o‘z xalqini bahramand etishga harakat qildi. 1908 yili tashkil qilingan «Fotografiyai Ishoqiya», 1910 yili To‘raqo‘rg‘on aholisi uchun bunyod etilgan istirohat bog‘i buni tasdiqlaydi. Bugina emas. U otasidan qolgan katta yerni gulbog‘ qildi, favvora qurdirdi, 150 tup manzarali da-raxtlardan xiyobon yaratdi, Yevropa usulida katta imorat qurdirib, uning arkiga «Xush kelibsiz, Ishoqiya bog‘iga!» — deb yozib qo‘ydi. To‘raqo‘rg‘on aholisi uni hozir ham «Gulbog‘», «Ishoqiya bog‘i» deb ataydi. Bu bog‘ni shoir Ibrat xalq uchun yaratganini yana shundan ham bilish mumkinki, u bu maskanda dam oluvchilarni gulni behuda uzmaslikka, tartib saqlashga chaqiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

91. Xoshimov K.K. Pedagogika tarixi Toshkent 2006 yil
92. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2005.
93. Ziyoyev H. Istiqlol - ma'naviyat negizi. – T.: Ma'naviyat, 1999. 190 b.
94. Islamovich, A. X. (2023). Preparing students for innovative entrepreneurship in universities. *Current research journal of pedagogics*, 4(11), 56-60.
95. Аляминов, Х. И. (2023). Инновацион тадбиркорлик-шахс шаклланишида муҳим фактор сифатида. *Quality of teacher education under modern challenges*, 1(1), 77-81.
96. Alyaminov, X. I. (2023). Innovative entrepreneurship in students as a factor of socioeconomic development of society. *Zibaldone Estudios Italianos*, 10(2), 393-399.
97. Alyaminov, X. (2022). The value of the value approach in the development of professional competence of future architects. *Science and Innovation*, 1(8), 2063-2066.
98. Аляминов, Х. И. (2022). Халқнинг тарихий-маданий ёдгорликларини кадрятли ёндашув асосида ўрганишнинг аҳамияти: Аляминов Хайрулла Исламович Қорақалпоқ Миллий Университети, Архитектура кафедраси доценти. Нукус шаҳри. Қорақалпоғистон Республикаси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (12), 32-37.
99. Alyaminov, X. (2022). Bolajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2063-2066.

100. Аляминов, Х., & Уразимбетов, Ю. (2018). Исторические и культурные памятники-перспектива для развития каракалпакского народа. *Студенческая наука Подмоскoвьeю*, 1(1), 34-35.
101. Аляминов, Х. И. (2017). Ўлкашунослик материаллари асосида тасвирий санъат таълими мазмунини такомиллаштириш. *Муғаллим*, 7(6), 4-6.
102. Аляминов, Х. И. (2017). Ўлкашунослик материаллари-ўзига хос ўтахалқчил манба сифатида. *Муғаллим*, 6(6), 4-5.
103. Аляминов, Х. И. (2017). Қорақалпоқ мактабларидаги бадий таълим-тарбиянинг мазмунидаги ўлкашунослик материалларининг ўрни ва моҳияти. *Муғаллим*, 3(3), 13-16.
104. Аляминов, Х. И. (2016). Тасвирий санъатни ўқитишда предметлараро боғланишнинг аҳамияти. *Муғаллим*, 2(2), 4-9.
105. Аляминов, Х. И. (2014). Ўлкашунослик материалларининг ўқув материали сифатидаги таълимий ва тарбиявий имкониятлари. *Муғаллим*, 5(6), 75-80.
106. Аляминов, Х. И. (2008). Тасвирий санъат машғулотларида ўлкашунослик материалларининг туган ўрни. *Муғаллим*, 1(6), 75-79.
107. Аляминов, Х. И. (2008). Бадий-эстетик таълим-тарбия тизимида ўлкашунослик манбалари ўқув материали сифатида фойдаланишнинг аҳамияти. *Муғаллим*, 1(5), 4-8.
108. Аляминов, Х. И. (2006). Тасвирий санъат дарсларида ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш методикаси. *Методик кўлланма*, 1(1), 1-32.
109. Аляминов, Х. И. (2005). Бадий таълим мазмунида ўлкашунослик материалларининг ўрни. *Халқ таълими*, 1(6), 8-12.
110. Аляминов, Х. И. (2002). Ўлкашунослик материаллари воситасида бадий-эстетик тарбия мазмунини такомиллаштириш. *Халқ таълими*, 1(6), 4-8.
111. Аляминов, Х. И. (2001). Таълим жараёнида ўлкашунослик. *Халқ таълими*, 1(5), 3-6.
112. Эгамов, Д. (2021). Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодежи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 28-32.
113. O‘G‘LI, E. D. Y. (2022). innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan xolatda boshlag'ich sinif o'quvchilani jismoniy sifatlarni rivojlantirish. *Scienceweb academic papers collection*.
114. O‘G‘LI, R. I. M. (2022). Контурное взрывние при подземных горных работ. *Scienceweb academic papers collection*.
115. O‘G‘LI, E. D. Y. (2022). Yosh gandbolchilarining o‘quv mashg‘ulot jarayonini me‘yorlashtirish usullari. *university sports: health and prosperity of the nation*.
116. O‘G‘LI, E. D. Y. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuch sifatini rivojlantirish va sport turlariga saralash. *Scienceweb academic papers collection*.
117. O‘G‘LI, E. D. Y. (2021). Yoshlar orasida ommaviy sport harakatini targ‘ib qilish metodikasini takomillashtirish. *Scienceweb academic papers collection*.

118. Эгамов, Д., & Рахманов, Е. (2021). Широкая пропаганда здорового образа жизни и дальнейшее развитие массового спорта. *in Library*, 21(2), 3-5.
119. O'G'LI, E. D. Y. (2021). Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish. *Scienceweb academic papers collection*.
120. O'G'LI, E. D. Y. (2021). Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодёжи. *Scienceweb academic papers collection*.
121. Раупов, Ж. Р. (2023). СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 1324-1329.
122. Раупов, Ж. Р. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ЭКОНОМИКЕ. *Экономика и социум*, (7 (110)), 604-609.
123. Раупов, Ж. Р. (2023). Международный опыт использования технологий интернета вещей в цифровых платформах. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (3), 91-100.
124. Раупов, Ж. Р. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ В ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМАХ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 593-599.
125. Раупов, Ж. (2021). Единые электронные медицинские карты-требование времени. *Опубликовано в электронной версии газеты «Янги Ўзбекистон» URL: <https://yuz.uz/ru/news/edine-elektronne-meditsinskie-kart---trebovanie-vremeni>*, 7.
126. Nurmatovna, M. Z., & Plashovich, K. B. (2023). Under the current climate change and ecological situation, efficient use of water resources of Surkhandarya region. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 23, 33-38.
127. Халиллаев, Ш. А., Мадрахимова, З. Н., & Умматова, М. (2024). Жиззах вилояти тоғли худудлари тўғриканотли хашаротлари. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(2), 60-64.
128. Jobborov, B., Madrahimova, Z., Jo'rayev, H., & Akramov, A. (2024). Xozirgi zamonning ekologik muammolari (sanoat tarmoqlari misolida). *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(2), 65-69.
129. Madraximova, Z. N., Ishankulova, K. K. (2024). Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi nomli o'quv qo'llanma. DGU 33154, 1(1), 20-24.
130. Madrakhimova, Z. N., qizi Ergasheva, S. S., & kizi Omonbaeva, M. Y. (2023). Classification of modern ecological problems and principles of forming ecological competence in students. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 46-52.
131. Madraximova, Z., & Toymbayeva, D. (2022). Sources of formation of ecology teaching theory and methodology. *Science and Innovation*, 1(8), 2409-2411.
132. Nurmatovna, M. Z., Bekmamatovna, A. Z., Qizi, J. T. M., & Qizi, I. Z. B. (2022). Impact of artificial reduction of the river waters in irrigation hydrosystems in the Syrdarya oblast to the meliorative situation. 15(1), 419-426.

133. Karshibayeva, L. K., Ishonqulova, K. K., Madrahimova, Z. N. (2021). Forish tumanida joylashgan Nurota davlat qo‘riqxonasi va biosfera rezervati qo‘riqxonalarining o‘simlik va hayvonot olami. *O‘zbekiston Zamini*, 1(3), 29-33.
134. Мадрахимова, З., Коршибоева, Л., & Арипов, И. (2021). Нозогеографик тадқиқотларда худудлар ер ости ва ер усти сувларини ўрганишнинг баъзи бир жиҳатлари. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 54-59.
135. Каршибаева, Л. К., Мадрахимова, З. Н. (2017). Сирдарё вилояти ишлаб чиқариш кучларини худудий ташкил этишда энергия ишлаб чиқариш циклар назарияси ва унинг экологик аҳамияти. *Экология хабарномаси*, 1(4), 25-28.
136. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
137. Кувондиқов, С. (2023). ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).
138. Кувондиқов, С. С. (2023). Structure and long-term dynamics of competitive activity of highly qualified basketball players. *инновации в педагогике и психологии*, 6(3).
139. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 243-248.
140. Kuvondikov, S. S. (2023). Model for the development of a sense of patriotism in future educators. *Confrencea*, 6(6), 289-292.
141. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.
142. Sidikovich, K. S. (2023). Theoretical bases of developing a sense of patriotism in future teachers based on the competence approach. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 363-366.
143. Kuvondikov, S. (2023). THE CONNECTION OF EMOTIONS WITH THE MENTAL STATE OF HIGHLY QUALIFIED WRESTLERS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 114-120.
144. Кувондиқов, С. (2022). ГАНДБОЛЧИ ДАРВОЗАБОНЛАР ЎЙИН САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(5).
145. Кувондиқов, С. (2022). СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ ВА СПОРТЧИЛАРНИНГ ПСИХИК ЖАРАЁНИНИ ЎРГАНИШ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(6).
146. Кувондиқов, С. (2022). Связь эмоций с психическим состоянием борцов высокой квалификации. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(7).

147. Quvondiqov, S. S. (2023). Sport mahoratini oshirish (Yengil atletika). O'quv qo'llanma, 1(1), 175.
148. Quvondiqov, S. S., Dusanov, S., Odilov, O., Junayeva, A. (2023). Sport mahorati oshirish (Gimnastika). O'quv qo'llanma, 1(1), 180.
149. Quvondiqov, S. S., Abdulaxatov, A., Toshpulatova, A. T. (2023). Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. O'quv qo'llanma, 1(1), 175.
150. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tarbiyasiga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiiq etish ijtimoiy zarurat sifatida. *Pedagogika*, 1(3), 33-37.
151. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jara yonlarini tashxis etishga doir milliy va xorijiy tajribalar tahlili. *TDPU Ilmiy axborotlari*, 1(3), 248-254.
152. Quvondiqov, S. S. (2022). Sport pedagogik mahoratni oshirish (Sport o'yinlari). *Darslik*, 1(1), 200.
153. Quvondiqov, S. S. (2022). Sport pedagogik mahoratni oshirish (Futbol). *Darslik*, 1(1), 150.
154. Қувондиқов, С. С. (2022). Кўп йиллик тайёргарлик босқичида енгил атлетика турларига ўқувчи ёшларни саралашнинг педагогик технологияси. *ЎзМУ*, 1(4), 104-107.
155. Қувондиқов, С. С. (2022). Футбол спорт турида тактика ва тактик тизимларнинг аҳамияти. *ЎзМУ*, 1(2), 77-80.
156. ЛАБИЙ, С. М. О., & НАДИМ, М. Х. (2023). Alisher navoiyning xurosonda qoldirgan izlari va adabiy an'anasining davomi. *Alisher Navoiy xalqaro jurnali*, 3(1).
157. Nadim, M. H. (2023). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ETNOREALİYALARINING TARJIMADA BERILISHI VA BADIY XOSLIGI. *Interpretation and researches*, 1(5).
158. Humayun NM. Etnografizmlarning o'zbek badiiy matnlarida qo'llanishi. *Science and Education*. 2023;4(6):953-8.
159. Nadim, H. (2021). AFG 'ONISTONDA O 'ZBEK, TOJIK VA TURKMANLARNING BA'ZI MUSHTARAK TO 'Y-MAROSIMI ETNOGRAFIK LEKSIKASI. *Scienceweb academic papers collection*.
160. Nadim, H. (2021). Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining forsiy lug'atlardagi ko'rinishlari. *NamDU ilmiy axborotnomasi*.
161. Nadim, M. H. (2021). SHIMOLIY AFG 'ONISTON O 'ZBEKLARI ETNOGRAFIK LEKSIKASI O 'ZIGA XOSLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR. *СЪЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ*, 107.
162. UZBEK, S. O. E. L. O., & AFGHANISTAN, W. C. I. N. Muhammad Humayun Nadim PhD student of Termez State University.
163. Исаков, В. Ю., Исаков, М. Ю., & Муқимжонов, У. В. К. (2022). Микробиогенные элементы в системе «порода-почва-растение» на лугово-оазисных почвах западной Ферганы. *Universum: химия и биология*, (9-1 (99)), 45-50.

164. Mukimjonova, U. V., Khojaeva, N. T., & Mahmutaliyev, R. (2023). Oriental lentil-a biological description of the plant *Lens orientalis* Schmall. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 604-606.
165. Mukimjonova, U. V., Khojaeva, N. T., & Mahmutaliyev, R. (2023). Biological description of pea (*Cicer arietinum*) plant. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 602-603.
166. Isaqov, M. Y., Mukimjonova, U. V., & Abduqayumova, S. A. (2023). Thorny licorice (*glycyrrhiza aspera* pall) biological description of plants and their role in medicine. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 599-601.
167. Kadirova, O. K.; Kadirova, Z. Z. (2023). O'zbek teminologiyasi. *Darslik*, 1(1), 155.
168. Кадирова, О. Х. (2023). Русская литература начала хх векагенезис проблемы циклизации в малой эпической форме. *ПАЁМИ ДОНИШКАДА*, 1(2), 408-412.
169. Kadirova, O. K. (2022). From the history of Russian-Uzbek literary relations (comparative typological analysis). *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 1(12), 1082-1088.
170. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
171. Кадырова, О. Х. (2002). Межлитературные типологические сопоставления в процессе преподавания. *Янги аср авлоди*, 1(1), 96.
172. Кадырова, О. Х. (2013). Русский язык 5 класс Книга для учителя. *Маънавият*, 1(1), 160.
173. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 188-192.
174. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
175. Кадирова, О. Х., & Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.
176. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. *ПЕРЕВОДЧЕСКИЙ ДИСКУРС: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД*, 1(2), 133-138.
177. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. *Современное образование и воспитание*, 1(1), 289-294.
178. Кадирова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. *Традиции и инновации в изучении и преподавании языков*, 1(1), 173-176.

179. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, 10(01), 227-232.

180. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of Russian-Uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).